



O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2025-YIL, 1-SON

journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'. Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, Faks: (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. Jurnal Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008. "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnalining 2025-yil 1-soni NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 10-mart 2025-yildagi 3-sonli kengaytirilgan yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 3). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

UDK 372.891

“OLIIY TA'LIM TIZIMINI INTEGRATSIYALASHDA MILLIY KONTENTDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI”

Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Email: abdurasulmirzaakbarov95@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy kontent tushunchasi va uning oliy ta'lim tizimidagi o'рни tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy kontentni pedagogika ta'limi jarayoniga integratsiyalashning metodologik asoslari va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Maqolada milliy kontentning talabalarning milliy qadriyatlar, madaniyat va tarix bilan tanishishidagi ahamiyati, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari milliy kontentni ta'lim tizimiga samarali integratsiya qilish uchun pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: milliy kontent, ta'lim tizimi, pedagogika, milliy madaniyat, ta'limda innovatsiyalar, metodika, madaniyatlararo muloqot.

ПОНЯТИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СОДЕРЖАНИЯ И ЕГО РОЛЬ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Мирзаакбаров Абдурасул Мирзаакбарович

Преподаватель Наманганского

государственного педагогического института

Электронная почта: abdurasulmirzaakbarov95@gmail.com

Аннотация: В статье анализируется понятие национального контента и его роль в системе высшего образования. В исследовании рассматриваются методические основы и практические аспекты интеграции национального контента в процесс педагогического образования. В статье подчеркивается важность национального контента в приобщении учащихся к национальным ценностям, культуре и истории, а также в повышении качества образования. Результаты исследования указывают на необходимость совершенствования педагогических подходов для эффективной интеграции национального контента в систему образования.

Ключевые слова: национальный контент, система образования, педагогика, национальная культура, инновации в образовании, методика, межкультурный диалог.

THE CONCEPT OF NATIONAL CONTENT AND ITS ROLE IN THE EDUCATION SYSTEM

Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich

Teacher of Namangan State Pedagogical Institute

Email: abdurasulmirzaakbarov95@gmail.com

Annotation: *This article analyzes the concept of national content and its role in the higher education system. The study examines the methodological foundations and practical aspects of integrating national content into the process of pedagogical education. The article shows the importance of national content in familiarizing students with national values, culture and history, as well as in improving the quality of education. The results of the study indicate the need to improve pedagogical approaches for the effective integration of national content into the education system.*

Keywords: *national content, education system, pedagogy, national culture, innovations in education, methodology, intercultural dialogue.*

Kirish. Ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning samaradorligi bevosita milliy qadriyatlar, tarixiy meros va madaniy xususiyatlar bilan bog'liqdir. Zamonaviy ta'lim tizimi globallashtirish va madaniyatlararo integratsiya jarayonida doimiy o'zgarishlarga duch kelayotgan bir paytda, har bir millat o'zining milliy o'ziga xosligini saqlab qolish zaruriyatiga duch kelmoqda. Shu boisdan, milliy kontentni ta'lim jarayoniga integratsiyalash orqali nafaqat o'quvchilarning bilim saviyasini oshirish, balki ularning ijtimoiy-madaniy dunyoqarashini ham shakllantirishga erishish mumkin [1]. Ta'lim tizimida milliy kontent tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u o'quv dasturlarida milliy qadriyatlar, tarixiy voqealar, urf-odatlar va an'analar aks etishini anglatadi. Shu bilan birga, milliy kontent asosida shakllantirilgan ta'lim modeli yosh avlodni ijtimoiy jihatdan barqaror, ma'naviy yetuk va vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review//Литературный обзор). Milliy kontentning ta'lim tizimidagi o'rni haqida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bu masala zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sh Karimovning ta'lim jarayoniga milliy kontentni kiritish nafaqat o'quvchilarning milliy qadriyatlar bilan tanishishiga xizmat qiladi, balki ularning madaniy ongini rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy identifikatsiyasini mustahkamlash va o'z millatiga bo'lgan hurmatini oshirishga ham katta ta'sir ko'rsatadi [3]. Tadqiqotlarda milliy kontentni ta'lim jarayoniga integratsiyalash muhim ilmiy muammo sifatida ko'rib chiqilgan. M Saidov o'z tadqiqotida milliy kontentni ta'lim

jarayoniga qo'shish orqali o'quvchilarning dunyoqarashi sezilarli darajada kengayishini, ularning madaniy tafakkuri shakllanishida ushbu omilning beqiyos ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan[4]. I Bekmurodov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda milliy kontentning ta'lim tizimidagi o'rnini samarali belgilash uchun pedagogik jarayonni moslashtirish kerakligi qayd etilgan[5].

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology//Методология исследования). Mazkur tadqiqotda milliy kontentning ta'lim tizimiga integratsiyasini o'rganishda sifatli tadqiqot metodlaridan keng foydalanildi. Xususan, holat tahlili, ekspert baholash, so'rovnoma va kontent-tahlil kabi metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Ushbu metodlar orqali milliy kontentning o'quv jarayoniga kiritilish darajasi, o'quvchilar va pedagoglarning unga bo'lgan munosabati, shuningdek, amaldagi ta'lim dasturlarining milliy xususiyatlarga mosligi chuqur tahlil qilindi. Birinchi navbatda, kontent-tahlil usuli yordamida ta'lim tizimida milliy kontentdan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilindi. Jumladan, umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan darsliklar, metodik qo'llanmalar va o'quv dasturlari o'rganilib, ularning mazmunida milliy qadriyatlar, an'analar va madaniy merosga oid materiallarning ulushi aniqlandi. Ikkinchidan, holat tahlili metodidan foydalanilib, milliy kontentdan samarali foydalanayotgan ta'lim muassasalari tajribasi o'rganildi. Bunda innovatsion yondashuvlar qo'llanilayotgan maktablar va universitetlarning pedagogik faoliyati tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotda so'rovnoma usulidan ham foydalanildi. So'rovnomalar orqali o'quvchilar va pedagoglarning milliy kontentni ta'lim jarayoniga qo'shish bo'yicha fikrlari, mavjud materiallarning yetarli yoki yetarli emasligi, shuningdek, dars jarayonida qanday pedagogik yondashuvlardan foydalanish lozimligi haqida ma'lumotlar to'plandi. Tadqiqotda 200 nafar o'qituvchi va 500 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Olingan natijalarga ko'ra, aksariyat o'qituvchilar milliy kontentni dars jarayoniga kiritish zarurligini ta'kidlagan bo'lsa-da, bu borada yetarli metodik materiallarning yo'qligini muammo sifatida qayd etganlar. Bundan tashqari, ekspert baholash usulidan foydalanilib, pedagogika sohasidagi mutaxassislarining milliy kontentni ta'lim tizimiga integratsiya qilish bo'yicha fikrlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida milliy kontentni o'quv jarayoniga

muvaffaqiyatli kiritish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- O'qituvchilar uchun milliy kontentni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha maxsus metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish va joriy etish;
- Dars jarayonida milliy kontentga asoslangan interfaol va innovatsion o'qitish metodlaridan foydalanish;
- Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida milliy kontentni ta'lim materiallariga kiritish va multimediya resurslari orqali uning ta'sirchanligini oshirish [3].

Ushbu metodologik yondashuvlar asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalari milliy kontentning ta'lim tizimidagi o'rnini yanada aniqlik bilan baholashga yordam berdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, milliy kontentning ta'lim jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarning madaniy va ijtimoiy tafakkurini shakllantirishga, ularning milliy identifikatsiyasini mustahkamlashga hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Shu bilan birga, tadqiqot milliy kontentni samarali qo'llash uchun pedagoglarning metodik tayyorgarligini oshirish va o'quv materiallarini yangilash zaruriyatini ko'rsatdi.

Tahlillar va natijalar (Analyses and results//Анализы и результаты).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy kontentning ta'lim tizimiga kiritilishi nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga, balki ularning milliy ong va madaniy identifikatsiyasini shakllantirishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida milliy kontentdan foydalanish o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, milliy kontent asosida ta'lim olgan o'quvchilarda o'z xalqining tarixi, tili, san'ati va an'analari haqidagi bilimlari ancha mustahkamlanadi. Shu bilan birga, ularning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni anglash qobiliyati ham ortadi. Bundan tashqari, milliy kontentning ta'lim jarayonida qo'llanishi o'quvchilarning madaniy ongini rivojlantirish va ularda milliy g'ururni shakllantirish uchun muhim vositalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy kontent asosida o'qitilgan o'quvchilar o'zining milliy identifikatsiyasini yanada teranroq anglaydi va global madaniyat bilan milliy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikni tushunishga intiladi.

Biroq tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, milliy kontentni ta'lim tizimida keng joriy etishda bir qator muammolar va to'siqlar mavjud. Jumladan:

- Ta'lim tizimida milliy kontentni qo'llash bo'yicha yetarli metodik materiallarning yo'qligi;
- Pedagoglarning milliy kontentdan samarali foydalanish bo'yicha malaka va tajribasining yetarli emasligi;
- Milliy kontentni zamonaviy o'qitish texnologiyalariga integratsiya qilishdagi qiyinchiliklar;
- Globballashuv jarayonida milliy kontentning o'quv dasturlaridan siqib chiqarilishi xavfi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari surildi:

1. Milliy kontent asosida ishlab chiqilgan metodik qo'llanmalarni kengaytirish va ularni ta'lim tizimida keng qo'llash. Bu borada ilmiy-tadqiqot institutlari va pedagoglar hamkorligida milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha innovatsion metodlar ishlab chiqilishi lozim.
2. O'qituvchilar malakasini oshirish va ularni milliy kontentdan samarali foydalanishga tayyorlash. Bu borada maxsus seminarlar, treninglar va o'quv dasturlari tashkil etilishi zarur.
3. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, milliy kontentni interfaol o'qitish tizimlariga integratsiya qilish. Masalan, elektron darsliklar, mobil ilovalar va virtual ta'lim platformalari orqali milliy kontent asosida ta'lim berish samaradorligini oshirish mumkin.
4. Milliy kontentni ta'lim tizimida kengroq targ'ib qilish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari milliy kontentning ta'lim tizimiga integratsiyasi o'quvchilarni milliy madaniyat, tarix va qadriyatlar bilan tanishtirish, ularda milliy g'urur va madaniy tafakkurni shakllantirish, global madaniyat bilan milliy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, shuningdek, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa (Conclusion//Заключение) sifatida shuni aytish mumkinki, milliy kontentning ta'lim tizimiga integratsiyasi o'quvchilarning milliy qadriyatlar va

madaniyat bilan tanishishini ta'minlash, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Kelajakda milliy kontentni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov Sh. *Milliy kontent va ta'lim jarayonida uning o'рни*. Toshkent: Fan nashriyoti. (2017). – bet 23-30. (Sh. Karimov. National content and its place in the educational process. Tashkent: Science publishing house. (2017) - bet 23-30).
2. Karimov Sh. *Milliy kontent va ta'lim jarayonida uning o'рни*. Toshkent: Fan nashriyoti. (2019). – bet 45-52. (Karimov Sh. National content and its place in the educational process. Tashkent: Science publishing house. (2019). - page 45-52)
3. Saidov M. *Milliy kontentning ta'lim tizimidagi roli: nazariy va amaliy tahlil*. Toshkent: Fan va texnologiyalar. (2020). – bet 12-18. (Saidov M. The role of national content in the educational system: theoretical and practical analysis. Tashkent: Science and technology. (2020). - page 12-18)
4. Bekmurodov I. *Ta'limda milliylik va madaniyatlararo muloqot: innovatsion yondashuvlar*. Samarqand: Ilm-fan. (2021). – bet 78-85. (Bekmurodov I. Nationality and intercultural communication in education: innovative approaches. Samarkand: Science. (2021). - page 78-85)
5. Hasanov A. *Milliy kontentni ta'lim tizimiga integratsiya qilishdagi muammolar va ularni hal etish yo'llari*. Buxoro: BuxDU nashriyoti. (2022). – bet 55-63. (Hasanov A. Problems in the integration of national content into the educational system and ways to solve them. Bukhara: BuxDU publishing house. (2022). - page 55-63)
6. Nurmatov A. *Ta'lim jarayonida milliy kontentni joriy etish metodologiyasi va innovatsiyalari*. Nukus: Qoraqalpoq davlati nashriyoti. (2023). – bet 34-40. (Nurmatov A. Methodology and innovations of introducing national content in the educational process. Nukus: Karakalpak State Publishing House. (2023). - page 34-40)

- Tashnazarov Dj.Y.*
- 39. Boshlang'ich ta'limda ona tili fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirish lingvodidaktik muammo sifatida** **325**
Djakbarova M.I.
- 40. Klasterli yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mas'uliyatni rivojlantirish** **334**
Xusanova F.
- 41. "Oliy ta'lim tizimini integratsiyalashda milliy kontentdan foydalanishning o'ziga xos jihatlari"** **342**
Mirzaakbarov A.M.
- 42. Fanlararo aloqadorlik asosida fizika o'qitish jarayonini tashkil etish** **348**
Boyturayeva G.K., Zaxidov I.O., Alijanov D.A.
- 43. Techniques for developing grammatical competence of 5th and 6th-grade students using innovative technologies** **361**
Azamatova X.Q.
- 44. Ilmiy bilimlarni rivojlantirishda o'qitish metodlarining zamonaviy transformatsiyasi**
Abdulxayev A.A.
- 45. Zamonaviy ta'limda ilmiy-pedagogik bilimlarni shakllantirishning dolzarb yo'nalishlari** **381**
Uzoqboyev X.Q.
- 46. Maktabgacha ta'limda innovatsion muhitni ta'lim tarbiya jarayoni va pedagoglar faoliyatiga ta'siri** **391**
Akramjonova F.A.
- 47. Xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish ijtimoiy zarurat sifatida** **399**
Asqarova M.A.
- 48. Ingliz va o'zbek tillari kontekstida turizm terminlarining lug'aviy jihatlari** **412**
Odilboyeva U.Z.
- 49. Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining autopedagogik kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida** **419**
Raximov H.U.
- 50. Rangtasvirchi rassomlar asarlari tahlili asosida mavzuli kompozisiya yaratish** **425**
Komoldinov S.J.
- 51. Ta'lim ergonomikasi** **433**
Abdullayev S.X.